



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



*2024- yil yanvar-aprel oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
Tel.: (99879) 223-50-43*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Navoiy viloyatida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatimizda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-aprel oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 484,7 mln. AQSH dollariga etdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 129,0 % ni tashkil etdi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-aprel 2024 y., mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **484,7** +29,0 %
(2023- y.: 375,6)



Saldo


2024- y.: **187,7** (2023- y.: -11,2)



Eksport

2024- y.: **336,2** +84,5 %
(2023- y.: 182,2)

TSA'dagi ulushi, %da



Import

2024- y.: **148,5** -23,2 %
(2023- y.: 193,4)



Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 336,2 mln. AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 184,5 % ni tashkil etdi) va import hajmi 148,5 mln. AQSH dollariga (76,8 % ni tashkil etdi) yetdi. Hisobot davrida 187,7 mln. AQSH dollari qiymatida musbat tashqi savdo balansi qayd etildi.



NAVOIY VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)











| | | | | |
|---|---|---|--|---|
| <p>Fransiya</p> <p>TSA – 258,7</p> <p>Eksport: 257,8 Import: 0,9</p> <p> 53,4 %</p> | <p>Rossiya</p> <p>TSA – 70,5</p> <p>Eksport: 27,2 Import: 43,3</p> <p> 14,5 %</p> | <p>XXR</p> <p>TSA – 45,2</p> <p>Eksport: 1,1 Import: 44,1</p> <p> 9,3 %</p> | <p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 19,7</p> <p>Eksport: 3,7 Import: 16,0</p> <p> 4,1 %</p> | <p>Turkiya</p> <p>TSA – 16,6</p> <p>Eksport: 9,6 Import: 7,0</p> <p> 3,4 %</p> |
| <p>Daniya</p> <p>TSA – 10,1</p> <p>Eksport: 8,8 Import: 1,3</p> <p> 2,1 %</p> | <p>Afg‘oniston</p> <p>TSA – 9,9</p> <p>Eksport: 9,9 Import: -</p> <p> 2,0 %</p> | <p>Germaniya</p> <p>TSA – 8,0</p> <p>Eksport: - Import: 8,0</p> <p> 1,7 %</p> | <p>Qirg‘iz Respublikasi</p> <p>TSA – 4,5</p> <p>Eksport: 4,3 Import: 0,2</p> <p> 0,9 %</p> | <p>Buyuk Britaniya</p> <p>TSA – 4,0</p> <p>Eksport: - Import: 4,0</p> <p> 0,8 %</p> |











Navoiy viloyati jahonning 53 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Fransiyada (53,4 %), Rossiyada (14,5 %), XXRda (9,3 %), Qozog‘istonda (4,1 %) va Turkiyada (3,4 %) qayd etilgan.



NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)


| Davlatlar | 2022- y. | 2023- y. | 2024- y. |
|---|-------------|--------------|--------------|
| Fransiya | 61,4 | 120,5 | 258,7 |
|  <i>Eksport</i> | 60,4 | 119,3 | 257,8 |
| <i>Import</i> | 1,0 | 1,2 | 0,9 |
| Rossiya | 73,5 | 66,7 | 70,5 |
|  <i>Eksport</i> | 35,9 | 6,8 | 27,2 |
| <i>Import</i> | 37,6 | 59,9 | 43,3 |
| XXR | 53,5 | 54,5 | 45,2 |
|  <i>Eksport</i> | 0,6 | 4,0 | 1,1 |
| <i>Import</i> | 52,9 | 50,5 | 44,1 |
| Qozog'iston | 46,4 | 22,0 | 19,7 |
|  <i>Eksport</i> | 5,9 | 5,1 | 3,7 |
| <i>Import</i> | 40,5 | 16,9 | 16,0 |
| Turkiya | 20,5 | 26,4 | 16,6 |
|  <i>Eksport</i> | 11,9 | 15,0 | 9,6 |
| <i>Import</i> | 8,6 | 11,4 | 7,0 |
| Daniya | - | 2,2 | 10,1 |
|  <i>Eksport</i> | - | 1,2 | 8,8 |
| <i>Import</i> | - | 1,0 | 1,3 |
| Afg'oniston | 5,1 | 6,6 | 9,9 |
|  <i>Eksport</i> | 5,1 | 6,6 | 9,9 |
| <i>Import</i> | - | - | - |
| Germaniya | 4,8 | 2,4 | 8,0 |
|  <i>Eksport</i> | - | - | - |
| <i>Import</i> | 4,8 | 2,4 | 8,0 |
| Qirg'iz Respublikasi | 5,2 | 5,2 | 4,5 |
|  <i>Eksport</i> | 4,3 | 4,5 | 4,3 |
| <i>Import</i> | 0,9 | 0,7 | 0,2 |
| Buyuk Britaniya | 0,1 | 1,2 | 4,0 |
|  <i>Eksport</i> | - | - | - |
| <i>Import</i> | 0,1 | 1,2 | 4,0 |

| | Davlatlar | 2022- y. | 2023- y. | 2024- y. |
|--|----------------------------|------------|-------------|------------|
| | Litva | 5,3 | 6,8 | 3,7 |
|  | <i>Eksport</i> | 4,5 | 1,9 | 2,6 |
| | <i>Import</i> | 0,8 | 4,9 | 1,1 |
| | Yaponiya | 1,9 | 2,5 | 3,3 |
|  | <i>Eksport</i> | - | - | - |
| | <i>Import</i> | 1,9 | 2,5 | 3,3 |
| | Turkmaniston | 4,7 | 0,7 | 3,2 |
|  | <i>Eksport</i> | 3,7 | 0,7 | 2,5 |
| | <i>Import</i> | 1,0 | - | 0,7 |
| | Eron | 4,0 | 2,5 | 3,2 |
|  | <i>Eksport</i> | 0,4 | 0,5 | 1,7 |
| | <i>Import</i> | 3,6 | 2,0 | 1,5 |
| | Koreya Respublikasi | 7,9 | 4,1 | 2,9 |
|  | <i>Eksport</i> | - | 0,1 | - |
| | <i>Import</i> | 7,9 | 4,0 | 2,9 |
| | Italiya | 0,8 | 3,4 | 2,4 |
|  | <i>Eksport</i> | - | 0,7 | - |
| | <i>Import</i> | 0,8 | 2,7 | 2,4 |
| | Chexiya | 0,7 | 4,4 | 2,4 |
|  | <i>Eksport</i> | - | - | - |
| | <i>Import</i> | 0,7 | 4,4 | 2,4 |
| | AQSH | 1,8 | 0,3 | 2,2 |
|  | <i>Eksport</i> | 0,2 | - | 1,4 |
| | <i>Import</i> | 1,6 | 0,3 | 0,8 |
| | Hindiston | 9,0 | 15,4 | 1,9 |
|  | <i>Eksport</i> | - | 10,9 | - |
| | <i>Import</i> | 9,0 | 4,5 | 1,9 |
| | Tojikiston | 1,6 | 1,9 | 1,6 |
|  | <i>Eksport</i> | 1,6 | 1,9 | 1,6 |
| | <i>Import</i> | - | - | - |



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024- yil yanvar-aprel, ming AQSH doll.)*




2023- y.

2024- y.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri 66,3 % ulush bilan 321 478,2 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Uchquduq tumani 0,2 % ulush bilan 885,9 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-aprel, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 21,2 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 103,8 % ni tashkil etdi.



Boshqa xorijiy davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yilning yanvar-aprel oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 38,1 % ga ko'paydi va jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 78,8 % ni tashkil etdi.

Navoiy viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-aprel holatiga ko'ra, 102,9 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 42,1 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 60,8 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.




NAVOIY VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)




Navoiy viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (14,5 %), Qozog'iston (4,1 %) hamda Qirg'iz Respublikasi (0,9 %) davlatlari bilan qayd etildi.

NAVOIY VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)



 Navoiy viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 95,6 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 36,1 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 59,5 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi va Belarus) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



NAVOIY VILOYATINING EKSPORTI

(2024- yil yanvar-aprel)




Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘shishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma’lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar tomonidan 336,2 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 184,5 % ga ko‘paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi.



XSST* BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-aprel ulushi % da)



Navoiy viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.




NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-aprel, yillar kesimida)

| XSST tarkibi | Mln. AQSH dollari | | O'zgarish sur'ati, % da | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | |
|---|-------------------|--------------|-------------------------|--------------|------------------------------|--------------|
| | 2023 | 2024 | 2023 | 2024 | 2023 | 2024 |
| Jami eksport | 182,2 | 336,2 | 104,8 | 184,5 | 100,0 | 100,0 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 11,0 | 11,3 | 161,9 | 103,3 | 6,0 | 3,3 |
| Ichimliklar va tamaki | - | - | - | - | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari | 1,3 | 10,4 | 5,0 | 8,1 m. | 0,7 | 3,1 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | 4,7 | 9,4 | 4,7 m. | 2,0 m. | 2,6 | 2,8 |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | - | 0,7 | - | - | - | 0,2 |
| Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar | 134,0 | 262,5 | 131,9 | 195,9 | 73,5 | 78,1 |
| Sanoat tovarlari | 25,7 | 34,4 | 79,4 | 133,6 | 14,1 | 10,2 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 0,3 | 0,2 | - | 65,3 | 0,2 | 0,1 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 4,9 | 7,0 | 95,6 | 141,9 | 2,7 | 2,1 |
| Xizmatlar | 0,3 | 0,3 | 23,1 | 94,9 | 0,2 | 0,1 |

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,9 % ni tashkil etib, ular asosan katta ulush kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (78,1 %), sanoat tovarlari (10,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (3,3 %) hissasiga tog'ri kelmoqda.

NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI
(2024- yil yanvar-aprel)


|  XSST bo'limi nomi | Ming AQSH dollari | 2023- yilning mos davriga nisbatan, % da |
|---|-------------------|--|
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 11 327,5 | 103,3 |
| Sabzavotlar va mevalar | 2 828,0 | 66,6 |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 7 579,3 | 114,5 |
| Sut mahsulotlari va qush tuxumlari | 920,2 | - |
| Ichimliklar va tamaki | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari | 10 353,7 | 8,1 m. |
| To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari | 1 944,7 | 4,3 m. |
| O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo | 2 463,7 | 3,2 m. |
| Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar | 236,3 | 19,1 m. |
| Metall rudalari va metall parchalari | 5709,0 | 245,9 m. |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | 9 405,3 | 2,0 m. |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar | 9 405,3 | 2,0 m. |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | 743,4 | - |
| O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan | 743,4 | - |
| Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar | 262 465,2 | 195,9 |
| Noorganik kimyo moddalari | 258 713,0 | 197,9 |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar | 0,5 | - |
| Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar | 3 315,0 | 163,4 |
| O'g'itlar | 65,1 | 121,1 |
| Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari | 20,8 | 195,8 m. |
| Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari | 8,5 | 0,8 |
| Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar | 342,3 | 2,9 m. |

| XSST bo'limi nomi | Ming AQSH dollari | 2023-yilning mos davriga nisbatan, % da |
|---|-------------------|---|
| Sanoat tovarlari | 34 371,1 | 133,6 |
| To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar | 23 044,0 | 117,9 |
| Rangli metallar | 6 782,2 | 2,9 m. |
| Cho'yan va po'lat | 110,6 | 94,5 |
| Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar | 4 288,0 | 126,2 |
| Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan | 113,7 | 75,7 |
| Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna | 2,0 | 39,1 |
| Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan | 30,6 | 485,8 m. |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalar | 208,7 | 65,3 |
| Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar | 60,6 | 140,5 |
| Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari | 143,0 | 2,5 m. |
| Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari va ularning elektr qismlari | 5,1 | 2,3 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 6 979,9 | 141,9 |
| Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari | 6 323,4 | 136,6 |
| Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan | 430,1 | 160,1 |
| Poyabzal | 226,4 | 37,9 m. |
| Xizmatlar | 304,1 | 94,9 |
| Moliyaviy xizmatlar | 194,1 | 102,7 |
| Transport xizmatlari | 68,5 | 2,3 m. |
| Safarlar | 41,5 | 40,6 |

Navoiy tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-aprel oylarida MDH mamlakatlariga 42,1 mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 12,5 % ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-aprel, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Fransiya, Rossiya, Afg'oniston, Turkiya, Daniya, Qirg'iz Respublikasi va Qozog'iston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 95,5 % ni tashkil etdi.



NAVOIY VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-aprel, % da)






NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-aprel)*

| Davlatlar | Ming AQSH dollari | | O'sish sur'ati, % da | Egallab turgan o'ri |
|-------------------------|-------------------|-----------|----------------------|---------------------|
| | 2023 y. | 2024 y. | | |
| Fransiya | 119 340,5 | 257 759,2 | 2,2 m. | 1 |
| Rossiya | 6 775,3 | 27 223,2 | 4,0 m. | 2 |
| Afg'oniston | 6 599,1 | 9 855,6 | 149,3 | 3 |
| Turkiya | 14 994,1 | 9 559,8 | 63,8 | 4 |
| Daniya | 1 186,0 | 8 767,0 | 7,4 m. | 5 |
| Qirg'iz Respublikasi | 4 541,7 | 4 271,6 | 94,1 | 6 |
| Qozog'iston | 5 093,7 | 3 686,6 | 72,4 | 7 |
| Litva | 1 883,8 | 2 617,6 | 139,0 | 8 |
| Turkmaniston | 678,0 | 2 543,3 | 3,8 m. | 9 |
| Eron | 537,6 | 1 740,6 | 3,2 m. | 10 |
| Tojikiston | 1 861,1 | 1 605,8 | 86,3 | 11 |
| AQSH | 2,1 | 1 435,3 | 677,2 m. | 12 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 3 999,9 | 1 121,0 | 28,0 | 13 |
| Ukraina | 113,3 | 1 008,6 | 8,9 m. | 14 |
| Belarus | 1 796,0 | 960,7 | 53,5 | 15 |
| Armeniya | 68,9 | 399,5 | 5,8 m. | 16 |
| Pokiston | 261,8 | 371,6 | 141,9 | 17 |
| Ozarbajjon | 159,7 | 369,0 | 2,3 m. | 18 |
| Kanada | 0,0 | 234,9 | - | 19 |
| Polsha | 283,1 | 136,0 | 48,0 | 20 |



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2024- yil yanvar-aprel, ming AQSH doll.)*



Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri 81,1 % bilan 272 746,5 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Uchquduq tumani 0,1 % bilan 423,9 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-aprel oylarida 1 976,8 tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 35,7 % ni tashkil etdi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Afg'oniston (32,6 %) hamda Qozog'iston (26,7 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 1 892,6 ming AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 45,9 % ni tashkil qildi va jami eksportdagi ulushi 0,6 % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-aprel, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)


| | | | |
|---|--|--|--|
| <p>Pomidor</p> <p>175,0 ming AQSH dollari</p> <p>236,5 tonna</p> <p> 34,4 % ↓</p> | <p>Piyoz</p> <p>132,7 ming AQSH dollari</p> <p>504,8 tonna</p> <p> 10,5 m. ↑</p> | <p>Uzum</p> <p>198,8 ming AQSH dollari</p> <p>165,5 tonna</p> <p> 16,1 % ↓</p> | <p>Yong'oklar</p> <p>99,6 ming AQSH dollari</p> <p>100,5 tonna</p> <p> 8,0 % ↓</p> |
| <p>Karam</p> <p>90,6 ming AQSH dollari</p> <p>268,2 tonna</p> <p> 70,6 % ↓</p> | <p>Bodring</p> <p>43,0 ming AQSH dollari</p> <p>56,6 tonna</p> <p> 53,3 % ↓</p> | <p>Sitrus mevalar</p> <p>7,2 ming AQSH dollari</p> <p>6,4 tonna</p> <p> 50,9 % ↓</p> | <p>Loviya</p> <p>987,8 ming AQSH dollari</p> <p>245,2 tonna</p> <p> 2,2 m. ↑</p> |



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-aprel)

| Davlatlar | Tonna | Ming AQSH dollari | Ulushi, % da * |
|--|---------|-------------------|----------------|
|  Afg'oniston | 174,3 | 616,2 | 32,6 |
|  Qozog'iston | 1 057,4 | 505,5 | 26,7 |
|  Pokiston | 70,9 | 371,6 | 19,6 |
|  Xitoy Xalq Respublikasi | 251,1 | 287,0 | 15,2 |
|  Litva | 193,1 | 46,8 | 2,5 |
|  Latviya | 122,0 | 38,0 | 2,0 |
|  Estoniya | 108,0 | 27,5 | 1,4 |

* qiymat ifodasidan

 2024- yil yanvar-aprel oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Afg'onistonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 32,6 % ni), bu ko'rsatkich Qozog'istonning eksport hajmidan 21,9 % ko'p.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan viloyat uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.


Xususan, 2024- yil yanvar-aprel oylari yakuni bo'yicha 10 715,8 ming AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 3,2 % ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 26,4 % ga ko'paydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida kiyim-kechak (58,4 %), sintetik, jut tolalar (15,4 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 10 ta davlatiga eksport qilindi.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-aprel, ming AQSH dollari)




Yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-aprel, ming AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 304,1 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,1 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 94,9 % ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (63,8 %), transport xizmatlari (22,5 %) va safarlar turizm xizmatlari (13,7 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



NAVOIY VILOYATINING IMPORTI




2024- yilning yanvar-aprel oylarida import hajmi 148,5 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 76,8 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (37,9 %), sanoat tovarlari (28,3 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (15,7 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-aprel oylarida import qilingan tovarlar hajmi 144,6 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 3,9 mln. AQSH dollariga etdi.



NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-aprel, yillar kesimida)

| XSST tarkibi | Mln. AQSH dollari | | O'sish sur'ati, % da | | Umumiy hajmga nis- batan. % da | |
|--|-------------------|--------------|-------------------------|-------------|--------------------------------------|--------------|
| | 2023 | 2024 | 2023 | 2024 | 2023 | 2024 |
| Jami import | 193,4 | 148,5 | 105,3 | 76,8 | 100,0 | 100,0 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 9,8 | 12,5 | 133,8 | 127,9 | 5,1 | 8,4 |
| Ichimliklar va tamaki | - | - | - | - | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari | 3,3 | 3,3 | 136,1 | 98,0 | 1,7 | 2,2 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | 0,5 | 0,4 | 5,4 | 87,5 | 0,3 | 0,3 |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | 1,5 | 1,2 | 146,7 | 77,1 | 0,8 | 0,8 |
| Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar | 20,4 | 23,3 | 65,4 | 114,3 | 10,5 | 15,7 |
| Sanoat tovarlari | 48,5 | 42,0 | 97,3 | 86,6 | 25,1 | 28,3 |
| Mashinalar va transport asbob- uskunalari | 97,8 | 56,3 | 145,3 | 57,6 | 50,6 | 37,9 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 6,4 | 5,6 | 62,0 | 87,5 | 3,3 | 3,8 |
| Xizmatlar | 5,2 | 3,9 | 100,2 | 76,0 | 2,6 | 2,6 |



XSSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-aprel)

| XSSST bo'limi nomi | Ming AQSH dollari | 2023- yilning mos davriga nisbatan, % da |
|---|-------------------|--|
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 12 535,8 | 127,9 |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 10 513,5 | 126,2 |
| Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 230,0 | 83,5 |
| Sabzavotlar va mevalar | 1 179,8 | 3,6 m. |
| Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari) | 167,8 | 133,9 |
| Tirik hayvonlar | 254,9 | 35,8 |
| Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal | 189,8 | 12,0 m. |
| Ichimliklar va tamaki | 10,1 | - |
| Ichimliklar | 10,1 | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari | 3 267,7 | 98,0 |
| Probka va yog'och-taxtalar | 608,8 | 96,7 |
| O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo | 375,4 | 3,4 m. |
| Yog'li urug'lar va yog'li mevalar | 406,8 | 64,6 m. |
| To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari | 1 724,3 | 66,8 |
| Tabiiy kauchuk | 3,4 | 41,1 |
| Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari | 149,0 | 438,4 m. |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | 432,1 | 87,5 |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar | 427,2 | 87,7 |
| Ko'mir, koks va briketlar | 4,9 | 68,6 |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | 1 151,9 | 77,1 |
| O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan) | 1 119,8 | 76,1 |
| Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar | 32,1 | 139,6 |
| Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar | 23 271,9 | 114,3 |
| Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari | 286,9 | 2,3 m. |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar | 5 781,2 | 94,7 |
| Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar | 11 427,2 | 170,9 |
| Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalar; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari | 88,8 | 5,6 |
| Noorganik kimyo moddalari | 3 253,2 | 118,9 |
| Organik kimyo moddalari | 1 097,9 | 102,8 |
| Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar | 1 153,0 | 64,1 |
| Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar | 183,7 | 84,3 |


| XSST bo'limi nomi | Ming AQSH dollari | 2023- yilning mos davriga nisbatan, % da |
|--|-------------------|--|
| Sanoat tovarlari | 41 985,6 | 86,6 |
| Cho'yan va po'lat | 3 301,7 | 76,9 |
| Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan | 2 867,2 | 85,4 |
| To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar | 1 178,8 | 2,2 m. |
| Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan | 1 965,6 | 15,2 |
| Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar | 87,7 | 35,8 |
| Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan | 1 078,2 | 136,5 |
| Rangli metallar | 31 505,6 | 120,2 |
| Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) | 0,6 | 0,5 |
| Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna | 0,2 | - |
| Mashinalar va transport asbob-uskunolari | 56 324,1 | 57,6 |
| Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham) | 4 448,4 | 41,9 |
| Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar | 20 962,9 | 57,1 |
| Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari | 11 998,4 | 97,0 |
| Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari | 4 703,7 | 67,7 |
| Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar | 8 581,7 | 2,5 m. |
| Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari | 3 340,0 | 146,3 |
| Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar | 84,0 | 10,6 |
| Metallarni qayta ishlash mashinalari | 2 205,0 | 114,8 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 5 599,7 | 87,5 |
| Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari | 4 366,8 | 129,0 |
| Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar | 873,5 | 96,7 |
| Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari | 205,0 | 10,2 |
| Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel | 61,5 | 69,5 |
| Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari | 57,1 | 94,4 m. |
| Poyabzal | 26,2 | - |
| Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar | 6,1 | 92,6 |
| Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar | 3,5 | 3,6 m. |
| Xizmatlar | 3 903,0 | 76,0 |
| Transport xizmatlari | 2 966,1 | 67,8 |
| Safarlar (turizm xizmatlari) | 17,4 | 2,8 m. |
| Boshqa xizmatlar | 919,5 | 121,0 |

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2024- yil yanvar-aprel oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 40,9 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 77,9 % ni tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-aprel oylarida Navoiy viloyati 48 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya, Qozog'iston, Germaniya, Turkiya, Buyuk Britaniya va Yaponiya) jami importning 83,8 % ini tashkil qiladi, bu 91,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



NAVOIY VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-aprel, % da)






NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-aprel)

| Davlatlar | Ming AQSH dollari | | O'sish sur'ati, % da | Umumiy hajmdagi o'rni |
|-------------------------|-------------------|----------|----------------------|-----------------------|
| | 2023 y. | 2024 y. | | |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 50 510,3 | 44 053,9 | 87,2 | 1 |
| Rossiya | 59 905,0 | 43 245,3 | 72,2 | 2 |
| Qozog'iston | 16 881,9 | 15 984,0 | 94,7 | 3 |
| Germaniya | 2 406,5 | 8 047,6 | 3,3 m. | 4 |
| Turkiya | 11 385,1 | 6 969,6 | 61,2 | 5 |
| Buyuk Britaniya | 1 168,7 | 4 047,7 | 3,5 m. | 6 |
| Yaponiya | 2 509,9 | 3 293,3 | 131,2 | 7 |
| Koreya Respublikasi | 4 000,9 | 2 943,1 | 73,6 | 8 |
| Italiya | 2 742,5 | 2 444,5 | 89,1 | 9 |
| Chexiya | 4 442,6 | 2 360,9 | 53,1 | 10 |
| Hindiston | 4 509,5 | 1 922,5 | 42,6 | 11 |
| Latviya | 6 610,1 | 1 505,0 | 22,8 | 12 |
| Eron | 2 013,0 | 1 459,8 | 72,5 | 13 |
| Daniya | 1 002,5 | 1 297,3 | 129,4 | 14 |
| Estoniya | 2 145,1 | 1 149,4 | 53,6 | 15 |
| Litva | 4 937,7 | 1 113,6 | 22,6 | 16 |
| Fransiya | 1 207,1 | 963,3 | 79,8 | 17 |
| AQSH | 326,5 | 782,5 | 2,4 m. | 18 |
| Shveysariya | 598,3 | 714,2 | 119,4 | 19 |
| Turkmaniston | 17,3 | 707,3 | 41,0 m. | 20 |



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2024- yil yanvar-aprel, ming AQSH doll.)



2023- y.


2024- y.

Viloyatning importi tarkibida eng yuqori ulushni Karmana tumani 54,2 % bilan 80 460,1 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Nurota tumani 0,3 % bilan 385,9 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-aprel, ming AQSH dollarida)




2024- yil yanvar-aprel oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 3 903,0 ming AQSH dollarini yoki jami import hajmining 2,6 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 76,0 % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (76,0 %), safarlar (turizm xizmatlari) (0,4 %) va boshqa xizmatlar (23,6 %) dan iborat bo'ldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yil yanvar-aprel oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 41 985,6 ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 86,6 % ni tashkil etdi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 28,3 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-aprel)

30 132,6 ming AQSH doll.
ulushi – 71,8 %

 Rossiya

4 691,5 ming AQSH doll.
ulushi – 11,2 %

 Xitoy Xalq
Respublikasi

3 025,7 ming AQSH doll.
ulushi – 7,2 %

 Qozog'iston

1 289,6 ming AQSH doll.
ulushi – 3,1 %

 Latviya

767,8 ming AQSH doll.
ulushi – 1,8 %

 Germaniya



2024- yil yanvar-aprel oylarida sanoat mahsulotlari importi hajmining Navoiy viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi Rossiya 30 132,6 ming AQSH dollari (71,8 %), Xitoy Xalq Respublikasi 4 691,5 ming AQSH dollari (11,2 %) va Qozog'iston 3 025,7 ming AQSH dollari (7,2 %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.